An’anaviy “Tarixshunoslik o’qishlari 2021” o’tkazildi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda Temuriylar tarixi davlat muzeyi bilan hamkorlikda mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligiga bag’ishlangan “Mustaqillik davrida tarix fani: yutuqlar va muammolar” mavzusidagi an’anaviy “Tarixshunoslik o’qishlari 2021” respublika ilmiy anjumani o’tkazildi. Unda yetakchi tarixchi olimlar, yosh tadqiqotchilar, oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilari hamda tarix, sharqshunoslik, arxeologiya yo’nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishdi.

Anjumanda O’zbekiston tarixining turli davrlari, tarixshunoslik, san’atshunoslik, arxeologiya, manbashunoslik, fan uslubchiligi, etnologiya, numizmatika kabi yo’nalishlarning 30 yillik rivojlanish natijalari bo’yicha ma’ruzalar taqdim qilindi, har bir sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining yutuqlari va istiqbolli yo’nalishlari ko’rsatildi.

Anjuman davomida respublkamizning yetakchi tarixchi-olimlari tomonidan tarix fani nazariyasi va uslubchiligi masalalari, O’zbekiston tarixini davrlashtirish, mustaqillik davrida arxeologiya fanining rivojlanish muammolari, manbashunoslik sohasi rivojlanishining asosiy yo’nalishlari, O’zbekistonda qadimgi tarixni o’rganishning asosiy omillari, xonliklar davri tarixshunosligidagi o’zgarishlar va muammolar kabi mavzularda 15 ga yaqin ma’ruzalar o’qib eshittirildi va muhokama qilindi.